FALSAFIY-ANTROPOLOGIK YONDASHUV TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA

Sirojiddinova Xurshidaxon Rustambek qizi
Farg‘ona davlat universiteti pedagogika nazariyasi
va tarixi mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada tarbiya jarayonini tashkil etish va uning samaradorligini oshirishda falsafiy-antropologik yondashuvning metodologik o‘rni hamda pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Muallif G‘arb pedagogik antropologiyasi vakillari (F. Herbart, O. Diltey, V. Natorp) qarashlariga tayanib, insonni tarbiyaviy faoliyatning markaziy subyekti sifatida talqin etish zarurligini asoslaydi. Tadqiqotda falsafiy-antropologik yondashuvning insonparvarlik, individuallashtirish, subyektiv faollik, rivojlanish hamda pragmatizm (amaliy yo‘naltirilganlik) kabi yetakchi tamoyillari atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur prinsiplarning O‘zbekiston zamonaviy ta’lim amaliyotidagi, xususan, “Inson qadri uchun” konsepsiyasi va barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi davlat siyosatidagi aks-sadosi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: falsafiy antropologiya, pedagogik antropologiya, tarbiya metodologiyasi, insonparvarlik, individuallashtirish, subyektiv faollik, rivojlanish prinsipi, pragmatism.

Аннотация: В статье освещаются методологическая роль и педагогические возможности философско-антропологического подхода в организации воспитательного процесса и повышении его эффективности. Автор, опираясь на взгляды представителей западной педагогической антропологии (Ф. Гербарт, О. Дильтей, В. Наторп), обосновывает необходимость интерпретации человека как центрального субъекта воспитательной деятельности. В исследовании подробно проанализированы такие ведущие принципы философско-антропологического подхода, как гуманизм, индивидуализация, субъективная активность, развитие и прагматизм (практическая направленность). Также показано отражение этих принципов в современной образовательной практике Узбекистана, в частности, в концепции «Во имя чести и достоинства человека» и государственной политике по воспитанию гармонично развитого поколения.

Ключевые слова: философская антропология, педагогическая антропология, методология воспитания, гуманизм, индивидуализация, субъективная активность, принцип развития, прагматизм.

Abstract: This article highlights the methodological role and pedagogical possibilities of the philosophical-anthropological approach in organizing the educational process and increasing its effectiveness. The author, relying on the views of representatives of Western pedagogical anthropology (F. Herbart, O. Dilthey, V. Natorp), justifies the need to interpret man as the central subject of educational activity. The study thoroughly analyzes the leading principles of the philosophical-anthropological approach, such as humanism, individualization, subjective activity, development, and pragmatism (practical orientation). It also shows the reflection of these principles in the modern educational practice of Uzbekistan, in particular, in the concept of "In the name of human dignity" and state policy on the upbringing of a harmoniously developed generation.

Keywords: philosophical anthropology, pedagogical anthropology, educational methodology, humanism, individualization, subjective activity, developmental principle, pragmatism.

Tarbiya insoniyat taraqqiyotining eng qadimiy va eng dolzarb ijtimoiy amaliyotlaridan biri bo‘lib, shaxsning shakllanishi, uning jamiyatga moslashuvi hamda avlodlar o‘rtasida bilim, tajriba va ma’naviy qadriyatlarning uzluksiz uzatilishini ta’minlaydigan ko‘p qirrali jarayondir. Tarbiya jarayonining samaradorligi, avvalo, uning nazariy-metodologik asoslarining puxtaligiga va inson tabiatining ilmiy asosda anglanishiga bog‘liq. Shu jihatdan, falsafiy-antropologik yondashuv tarbiya nazariyasi va amaliyotining fundamental metodologik negizini tashkil etadi. Ushbu yondashuvda inson shaxsining mohiyati, tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlari, rivojlanish imkoniyatlari, cheklovlari hamda jamiyatdagi funksional o‘rni markaziy o‘rin egallaydi.

Falsafiy-antropologik tahlil insonning “kim?” hamda “qanday bo‘lishi lozim?” kabi konseptual savollariga ilmiy javob izlash orqali tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni va usullarini belgilashga xizmat qiladi.

Falsafiy antropologiya g‘oyalarining pedagogika sohasiga kirib kelishi natijasida pedagogik antropologiya shakllandi. Bu yo‘nalish ayniqsa XIX asr G‘arbiy Yevropa pedagogikasida – F. Herbart, O. Diltey, V. Natorp kabi olimlarning ilmiy merosida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu pedagoglar insonni tarbiya jarayonining asosiy subyekti sifatida talqin qilib, tarbiyaviy faoliyat insonning tabiiy mohiyati va rivojlanish qonuniyatlariga tayanishi zarurligini ta’kidlaganlar. Ularning fikricha, tarbiya insonni sun’iy yo‘l bilan “yaratish” emas, balki uning tabiatan mavjud bo‘lgan imkoniyat va qobiliyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashishi lozim. Falsafiy-antropologik yondashuv tarbiya jaray-

onini tashkil etishda quyidagi metodologik tamoyillarni ilgari suradi. Tarbiyaning gumanizm, ya'ni insonparvarlik yo'nalishi. Mazkur tamoyil tarbiyaning bosh maqsadi sifatida shaxsning o'zini-o'zi rivojlantirishiga ko'maklashishni, uning shaxsiy qadr-qimmatini anglashiga va erkin, mustaqil fikrlovchi inson sifatida kamol topishini qo'llab-quvvatlashni belgilaydi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchiga hurmat asosida munosabatda bo'lishi, uning individual qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda pedagogik ta'sirni tashkil etishi lozim. Insonparvarlik tamoyili tarbiya jarayonida majburlash, zo'ravonlik yoki shaxsni kamsitishga mutlaqo yo'l qo'yilmasligini taqozo etadi. Keyingisi individual xarakteri, ya'ni individuallashtirish prinsipi. Har bir inson o'ziga xos noyob shaxsiyatga ega. Falsafiy-antropologik yondashuv tarbiya jarayonida har bir o'quvchining individual xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari va rivojlanish dinamikasini e'tiborga olishni taqozo etadi. Chunki yagona tarbiya modeli barcha tarbiyalanuvchilar uchun bir xil darajada samarali bo'lishi mumkin emas. Shu bois tarbiyachi har bir shaxsning o'ziga xos imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi va uning eng yaxshi fazilatlarini namoyon etishi uchun sharoit yaratishi zarur. Inson o'z mohiyatiga ko'ra passiv axborot qabul qiluvchi emas, balki faol, ijodkor subyektdir. Shu sababli tarbiya jarayonida o'quvchi o'z-o'zini tarbiyalash, bilim va ko'nikmalarni mustaqil o'zlashtirish hamda shaxsiy rivojlanishiga intilish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Tarbiyachining vazifasi esa shaxsning ichki faolligini rag'batlantirish, uni mustaqil fikrlash, izlanish va yangi g'oyalar yaratishga undashdan iborat.

Tarbiyaning rivojlantiruvchi xarakteri, ya'ni rivojlanish prinsipi. Tarbiyaning mohiyati shaxsni mavjud holatida saqlab qolish emas, balki uning uzluksiz intellektual, ma'naviy, estetik, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Rivojlanish prinsipi tarbiya jarayonining har bir bosqichida insonning tabiiy salohiyatini aniqlash, uni ochib berish va to'laqonli ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Keyingisi esa tarbiyaning hayotiy va amaliy yo'nalishi, ya'ni pragmatizm prinsipi. Tarbiyalanuvchi jamiyatning faol a'zosi sifatida real hayot sharoitlarida yashaydi va ijtimoiy munosabatlarda bevosita ishtirok etadi. Shu bois falsafiy-antropologik yondashuv tarbiyani hayotdan ajratmagan holda, uni amaliy faoliyat va real hayotiy vaziyatlar bilan uzviy bog'lashni talab etadi. O'quvchi egallagan bilim va ko'nikmalarini kundalik hayotdagi vazifalar va muammolarni hal etishga tatbiq eta olishi, jamiyat uchun foydali faoliyatda ishtirok etishi zarur.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham falsafiy-antropologik yondashuvga xos tamoyillar tobora keng qo'llanilmoqda.

Xususan, "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" kabi dars-

liklarda insonning jamiyatdagi o‘rni, uning ma’naviy-axloqiy yetukligi masalalari asosiy e’tibor markazida turadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “bugungi kunda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlovchi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”. Bu fikrlar falsafiy-antropologik prinsiplarga asoslangan yondashuvning O‘zbekiston ta’lim amaliyotida chuqur o‘rnashayotganini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ilgari surilgan “Inson qadri uchun” tamoyili falsafiy-antropologik yondashuvning markaziy g‘oyalaridan biri bo‘lgan insonparvarlik konsepsiyasini o‘zida mujassam etadi. Ushbu tamoyil barcha islohotlarning markazida inson shaxsini, uning huquqlari, erkinliklari va farovonligini qo‘yishni nazarda tutadi. Ta’lim va tarbiya jarayoni ham shaxsning qadr-qimmatini ulug‘lash, uning imkoniyatlarini rivojlantirish va to‘laqonli shaxs sifatida shakllanishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Xulosa. Falsafiy-antropologik yondashuv tarbiya jarayonini tashkil etishda asosiy metodologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi va inson shaxsini uning murakkab tabiati hamda xilma-xil jihatlari bilan tarbiya tizimining markaziga qo‘yadi. Ushbu yondashuvning asosiy tamoyillari – insonparvarlik, individuallashtirish, faollik, rivojlanish va hayotiylik – tarbiyaning maqsadlari, mazmuni, metodlari va shakllarini insonning real mohiyatiga muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv zamonaviy pedagogika oldiga shaxsni faqat bilimlar bilan qurollantirish emas, balki uni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mas’uliyatli va baxtiyor inson sifatida shakllantirish vazifasini qo‘yadi. O‘zbekiston ta’lim amaliyotida ham ushbu tamoyillarning faol qo‘llanilayotgani mamlakatimizning kelajagi uchun intellektual va ma’naviy yetuk yosh avlodni tarbiyalashga mustahkam zamin yaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
3. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
4. Nishonova S.N., Qodirova R.M. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: TDPU, 2009.
5. Xayrullayev M.M. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007.

6. Leontyev A.N. Deyatelnost, soznanie, lichnost. – Moskva: Politizdat, 1975.
7. Mareev S.N., Mareeva Ye.V., Barchukova V.V. Filosofskaya antropologiya. – Moskva: Akademicheskiy proekt, 2005.
8. Gubin V.D., Nekrasova Ye.A. Filosofskaya antropologiya. – Moskva: RGGU, 2000.
9. Gehlen A. Der Mensch. Seine Natur und seine Stellung in der Welt. – Frankfurt am Main: Athenaum, 1986.